



CURRENT ISSUES OF IMPROVING SECURITY MECHANISMS IN CENTRAL ASIA

Saodat F. Ubaydullayeva

Senior Lecturer, PhD in Political Sciences

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: region, security, threats, Central Asia, interdependence.

Received: 12.08.23

Accepted: 14.08.23

Published: 16.08.23

Abstract: The article is devoted to the generality of threats and their elimination in the system of regional security interdependence in Central Asia. In it, threats to regional security, their types, causes of origin and continuation processes, the direct impact of threats affecting one of the states in the region on the other, their study and solving existing problems, development of regional cooperation in order to prevent threats, etc. issues have been considered.

MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Saodat F. Ubaydullayeva

Katta o'qituvchi, siyosiy fanlar nomzodi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mintaq, xavfsizlik, tahdidlar, Markaziy Osiyo, o'zaro bog'liqlik.

Annotatsiya: Maqola Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik o'zaro bog'liqligi tizimida tahdidlarning umumiyliigi va ularni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan. Unda mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar, ularning turlari, kelib chiqishi sabablari va davom etish jarayonlari, mintaqadagi davlatlarning biriga ta'sir etayotgan xavfning ikkinchisiga bevosita ta'siri haqida, ularni o'rganish va mavjud muammolarni hal qilish, tahdidlarning oldini olish maqsadida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish kabi dolzarb masalalar ko'rib chiqilgan.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Саодат Ф.Убайдуллаева

Старший преподаватель, кандидат политических наук

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	регион,	Аннотация:	Статья посвящена
безопасность, угрозы, Центральная Азия, взаимозависимость.	Азия,	общности угроз и их устранению в системе взаимозависимости региональной безопасности в Центральной Азии. В ней рассмотрены угрозы региональной безопасности, их виды, причины возникновения и процессы продолжения, прямое влияние опасности, затрагивающей одно из государств региона, на другое, их изучение и решение существующих проблем, развитие регионального сотрудничества в целях предотвращения угроз и т.д. вопросы были рассмотрены.	региональной безопасности в Центральной Азии. В ней рассмотрены угрозы региональной безопасности, их виды, причины возникновения и процессы продолжения, прямое влияние опасности, затрагивающей одно из государств региона, на другое, их изучение и решение существующих проблем, развитие регионального сотрудничества в целях предотвращения угроз и т.д. вопросы были рассмотрены.

KIRISH

Jahonda turli tahdidlar, jumladan, davlatlar va mintaqalar manfaatlari o'rtasidagi to'qnashuvi, yangi dunyo tartibotini joriy etishga intilish kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, mazkur mintaqaning xavfsizligi uning hududida joylashgan har bir davlatning xavfsizligi bilan uzviydir. Bugunga kelib mintqa davlatlari o'rtasida aloqalarning rivojlanib borayotgani, yirik iqtisodiy loyihalar amalga oshirila boshlagani, transport yo'laklari takomillashayotgani Afg'oniston tarafdin kutilayotgan xavf-xatarni bartaraf etishga, ushbu davlatni Markaziy Osiyodagi iqtisodiy loyihalarga jalb qilish imkoniyatlarini oshirishga imkon berishi bilan birga, ayni vaqtda terrorizm, diniy ekstremizm, axborot ekstremizmining yangi shakllari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shu bois Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha o'zaro va dunyoning rivojlangan davlatlari bilan aloqalariga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish zarurati oshib bormoqda.

Hozirgi dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida Markaziy Osiyo alohida geosiyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Azaliy raqobatdagi G'arb bilan Sharqni bog'lab turgan Markaziy Osiyo davlatlararo va mintaqalararo manfaatlar to'qnashuvida asosiy makonga aylandi. Shu bois dunyoning yetakchi davlatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan mintaqaning ekologiya, iqlim o'zgarishlari, transchegaraviy daryolardan foydalanish va suv ta'minoti masalalari hamda davlatlar xavfsizligiga bevosita tahdid qilayotgan terrorizm, ekstremizm va radikalizm

muammolari chuqur o'rganilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari uchun asosiy xavf manbai bo'lgan Afg'oniston muammosi ko'plab xorijiy ekspertlarning diqqatini tortmoqda.

ASOSIY QISM

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlarning murakkab maydoni va hozirgi dunyo istiqboliga daxldor bo'lgan muhim geosiyosiy makon hisoblanadi. "...Bugun biz yashayotgan, jarayonlar o'zaro chambarchas bog'langan dunyoda xavfli muammolar girdobidan chiqishning yakka-yu yagona yo'li — konstruktiv muloqot va har bir tarafning manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilishga asoslangan ko'p tomonlama hamkorlikdir..."[1]. Shu jihatdan qaraganda, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun Markaziy Osiyoda o'zaro bog'liqlik tizimi doirasida tahdid va xatarlarni bartaraf etishning umumiy yo'lini topish zarurati tobora oshmoqda, mintaqaning barqaror taraqqiyotiga tahdid solayotgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan umumiy harakatlar strategiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha o'zaro bog'liqlik nazariyasining metodologik asoslari ishlab chiqilmagani ham dolzarb muammolardan sanaladi. Bunga esa 1991 yildan so'ng yaratilgan aksariyat nazariyalar va o'tkazilgan tadqiqotlarda Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayon va voqealarga davlatlar o'rtasidagi "o'zaro bog'liqligi" nuqtai nazaridan emas, balki ularning "o'zaro aloqadorlik" nuqtai nazaridan qaratilgan bo'lgan. Ushbu omillar "Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha o'zaro bog'liqlik" tushunchasi va mintaqaviy xavfsizlik nazariyasini ta'riflash zarurligini, shuningdek mintaqada davlatlarining bu boradagi hududiy hamkorligi darajasini, yirik (AQSh, Rossiya, Xitoy) va mintaqaga qo'shni (Hindiston, Pokiston, Eron) davlatlarning Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash uchun nihoyatda muhim bo'lgan kompleks bog'liqlik tizimini shakllantirish bo'yicha tutayotgan yo'llarini tadqiq etish hamda ularning siyosiy xaritalarini tuzishni ustuvor vazifa qilib qo'yimoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlarning murakkab shakli tashkil topgan bo'lib, u chuqur ilmiy-metodologik tahlilni talab qilmoqda. Buning bir qancha sabablari bor.

Birinchidan, Markaziy Osiyoning barcha davlatlariga terrorizm, ekstremizm va radikalizm kabi xavf-xatarlar tahdid qilishda davom etmoqda. Xususan, yoshlar va xotin-qizlarning radikallashtirib borayotgani xavotirli holdir. Konservativ va zamonaviy diniy qadriyatlar o'rtasida muayyan ziddiyatlar kuzatilayotgani, shuningdek yoshlarning ijtimoiy-huquqiy jihatdan yetarli himoyalanganligi ularda radikal buzg'unchilik kayfiyati va g'oyalari shakllanib borayotganining asosiy sabablaridir.

Ikkinchidan, mintaqa davlatlarini bir-birini takrorlaydigan ko'plab loyihalarni shakllantirish bo'yicha turli geosiyosiy nayranglarga tortishga urinishlar, siyosiy va iqtisodiy jihatdan yakka qo'yish, mintaqaning eng muhim muammolarini hal qilishda ishtirok etishga qo'ymaslik hollari kuzatilmoqda. Mintaqani xavfsizlikka an'anaviy va noan'anaviy tahdidlar tarqaladigan maydonga aylantirish borasidagi urinishlar Markaziy Osiyo davlatlarida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bu esa ulardan milliy, mintaqaviy va xalqaro darajadagi tahdidlarni bartaraf etish uchun keskin choralar ko'rishni talab etmoqda.

Uchinchidan, Afg'onistonda narkotik moddalarning yetishtirilishi va qonunga xilof tarzda muomalaga chiqarilishi ortib bormoqda. Afg'oniston aholisi aksariyat qismining iqtisodiy ahvoli og'irligi va bu mamlakatning iqtisodiyotini tiklash uchun xalqaro miqyosda berilayotgan yordamning o'ta samarasizligi afg'onlar narkotik moddalarni o'stirish va ishlab chiqarishni davom ettirishiga sabab bo'lmoqda.

To'rtinchidan, transchegaraviy favqulodda vaziyatlar sohasida ham qator muammolar bor. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, radioaktiv moddalarning mintaqadagi transchegaraviy daryolar havzasiga tushishi qariyb 5 million nafar insonning sog'lig'iga jiddiy xavf soladi [2]. 2021-yil dekabr holatiga ko'ra O'zbekistonda 4 million, Tojikistonda 42 million, Qirg'izistonda 132 million, Qozog'istonda esa 240 million tonna radioaktiv chiqindi ko'milgan[3].

Beshinchidan, yer yuzida iqlim o'zgarishi sababli tabiiy ofatlar xavfi ortayotgani kuzatilmoqda. Ekspertlarning hisob-kitoblariga qaraganda, iqlim o'zgarishining oqibati Markaziy Osiyo davlatlarida 2050-yilga borib kuchli seziladi. XXI asr oxirigacha ushbu hududda havo harorati Selsiy bo'yicha 7 darajaga ortishi [4], Orolbo'yi hududida esa havo eng ko'p isishi kutilmoqda [5]. Tahlilchilar fikriga ko'ra, ushbu holat, eng avvalo, mintaqadagi daryolarni suv bilan ta'minlaydigan Markaziy Osiyo tog'laridagi muzliklar erib ketishi sababli xavf tug'diradi. Hisob-kitoblarga qaraganda, yillik o'rtacha harorat 2 daraja ko'tarilganida muzliklar hajmi — 50 foizgacha, 4 daraja ko'tarilganida esa 78 foizgacha qisqarishiga, bu esa chuchuk suvning kamayib, tabiiy ofatlar ko'payib ketishiga olib kelishi mumkin [6].

Markaziy Osiyo davlatlaridagi milliy gidrometeorologiya xizmatlarining o'zaro hamkorligi va tabiatda yuzaga keladigan xavfli vaziyatlar ustidan mintaqaviy monitoringning rivojlantirilishi, xavfli tabiiy holatlar natijasida ro'y beradigan insonlar nobud bo'lishi hamda iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirishga imkon yaratadi. Kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlarining oqibatlari atrof-muhitga, iqtisodiyot tarmoqlariga, aholiga va ayniqsa iqlimi o'zgaruvchan bo'lib qolgan xavfli hududlarda yashovchi mahalliy aholiga qattiq salbiy ta'sir etadi. Bunday ta'sir maydonlari — hajmi bo'yicha ham, bunda yetkaziladigan zarar miqdori bo'yicha ham — qishloq

xo‘jalik ishlab chiqarishi va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan cho‘l va sho‘rxok hududlarda yashaydigan aholiga nisbatan nihoyatda keng qamrovli bo‘ladi. O‘zbekiston, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari singari, xavfli iqlim o‘zgarishlari oqibatida yetkazilayotgan zararni kamaytirish va imkon qadar bartaraf etish yo‘llarini izlashga majbur bo‘lmoqda.

Iqlim o‘zgarishlarining O‘zbekiston uchun xavfiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bular, avvalo, suv resurslari taqchilligining oqibatlari, eng xavfli tabiiy ofatlardan hisoblanmish qayta cho‘llashish jarayonining kuchayishi, sel va suv toshqinlari ta’sir doiralarining kengayishidir. Tojikiston Prezidenti E.Rahmonning ta’kidlashicha, so‘nggi o‘n yilliklar davomida mamlakatda Markaziy Osiyo davlatlari uchun eng muhim suv manbai bo‘lgan muzliklar maydoni sezilarli darajada qisqarib bormoqda. Bugungacha Tojikiston tog‘larida joylashgan 13 mingta muzlikning mingdan ortig‘i erib bitgan. Vaholanki, Markaziy Osiyo suv resurslarining 60 % Tojikiston hududida vujudga keladi [7].

Kompleks o‘zaro bog‘liqlik tizimining holatiga Markaziy Osiyoning geosiyosiy joylashuvi ham katta ta’sir etadi. Uning eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri transchegaraviy omil bo‘lib, u mintaqa davlatlari o‘rtasida iqtisodiy bozorlar shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu omil Markaziy Osiyoda xavfsizlik tizimini mustahkamlovchi mintaqaviy munosabatlar rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratadi [8].

Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun Markaziy Osiyoda o‘zaro bog‘liqlik tizimi doirasida tahdid va xatarlarni bartaraf etishning umumiy yo‘lini topish zarurati mintaqadagi barcha mamlakatlar o‘rtasida bunday tahdid va xatarlarni yengish uchun umumiy harakatlar strategiyasini ishlab chiqishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

So‘nggi 30 yil mobaynida mintaqadagi davlatlar ikki va ko‘p tomonlama muloqot hamda kelishuvlar orqali tahdid va xatarlarga qarshi kurashishning samarali tizim va mexanizmlari yaratilishiga erishdilar. Biroq, bir qancha muammolarni, avvalo, (suv-ekologiya, chegara, transport-logistika kabi) mintaqaviy, shuningdek (oziq-ovqat ta’minotiga oid, biologik, radiatsion kabi) global muammolarni hal qilishning umumimintaqaviy mexanizmlari yaratilmay qoldi. Bunga, avvalo, davlatlar o‘rtasida murosa yo‘qligi, ularning xavfsizlik masalalariga turlicha yondashishi va bu borada bir to‘xtamga kelinmagani, shuningdek ushbu yo‘ldagi harakatlarni birlashtirishga to‘sqinlik qilayotgan tashqi omillar sabab bo‘lmoqda. Tojikistonlik ekspert F.Mirzoyevning ta’kidlashicha, hamkorlikning jami muhim yo‘nalishlari bo‘yicha Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlarning manfaatlarini nazarda tutuvchi mintaqaviy integratsiyaga erishilishi ushbu mintaqaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi, bu esa, o‘z navbatida, boshqa mintaqalarga, shu jumladan Janubiy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqqa ham ta’sir etishi mumkin [9].

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd etganidek, so‘nggi vaqtlarda Markaziy Osiyo mintaqasida va xalqaro maydonda O‘zbekistonning siyosiy roli va mavqeyi ancha oshdi. Jahon siyosiy maydonida “Markaziy Osiyo ruhi” degan atama paydo bo‘ldi. Bu esa mintaqada ichki va tashqi siyosat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldirishi mumkinligidan dalolat beradi [10].

XULOSA

Shu munosabat bilan, Markaziy Osiyodagi hozirgi vaziyatda mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash uchun kompleks o‘zaro bog‘liqlik tizimi shakllanayotganligini nazarda tutgan holda uni atroflicha o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o‘zaro bog‘liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik. — URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5495>
2. Altinbayev K. YEI Rossiyadan qolgan radioaktiv chiqindilarni bartaraf etishda Markaziy Osiyoga yordam beradi. 15.11.2018. — URL: https://central.asia-news.com/uz-Cyrl/articles/cnmi_ca/features/2018/11/15/feature-01
3. O‘zbekistonda 4 mln tonna radioaktiv chiqindi mavjudligi ma‘lum qilindi. 14.12.2021. — URL: <https://daryo.uz/k/2021/12/14/ozbekistonda-4-mln-tonna-radioaktiv-chiqindi-mavjudligi-malum-qilindi/>
4. Экономика изменения климата в Центральной и Западной Азии / Азиатский банк развития. — март, 2016 г. — URL: <https://www.adb.org/sites/default/files/project-document/185438/44068-012-tacr-11-ru.pdf>
5. Климат и безопасность в Центральной Азии: ситуация, последствия, рекомендации. 20.02.2019. — URL: <https://www.caa-network.org/archives/15280>
6. Партоев К. Новые угрозы для ЦА: Изменение климата повлечет серьезные проблемы. 29.01.2018 г. — URL: <https://asiaplustj.info/news/tajikistan/security/20180129/nov-ie-ugrozi-dlya-tsa-izmenenie-klimata-povlechet-sereznie-problemi>
7. Рахмон заявил о сокращении водных ресурсов Таджикистана. <https://tj.sputniknews.ru/20211027/tajikistan-sokraschenii-vodnykh-resursov-1043114263.html>
8. Маккамбаев П.А. Современное состояние формирующейся системы региональной безопасности Центральной Азии // Экономика Центральной Азии. — 2021. — № 3. — С. 273–296.
9. Мирзоев Ф. Влияние геополитических факторов на безопасность государств Центральной Азии в конце XX — начале XXI вв.: Дис. ... канд. ист. наук / Таджикский национальный ун-т. — Душанбе, 2021. — 189 с.

10. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. 17.08.2021. —

URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4547>

11. Zumarad, A., Nazira, T., & Feruza, S. (2022). FEATURES OF GROWTH OF FUNGI OF THE GENUS CANDIDA ON THE NUTRITIONAL BASIS OF RICE BRAN. EPRA International Journal of Climate and Resource Economic Review (CRER), 10(3), 1-3.

12. Abidova, Z. K. (2017). Natural Places of Worship of Khwarezm, connected with Water Elements. European Researcher. Series A, (8-2), 48-57.